

**YANGI O'ZBEKISTONDA YOSH RAHBAR KADRLAR MASALASI.****Ahatov Amirbek Mo'minovich.****Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti****Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi.**

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda yosh rahbar kadrlarning uchunchi renesans davrida Yangi O'zbekistondagi o'rni, ularning bugungi mavqei va ularga qo'yiladigan talablar. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda yosh rahbar kadrlar salohiyatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, kadr, uchunchi renesans, yangi o'zbekiston, kelajak poydevori, uzluksiz, fundamental asos, milliy kadrlar zaxirasi.

Kirish.

Barchamizga ma'lumki davlatimiz kundan-kunga yangilanib, ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan dunyo davlatlari ichida yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda. Chuqur ildizga ega madaniyatimiz tufayli Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lib, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanib bormoqda. Mana shunday o'zgarishlarning fundamental asosida yosh rahbar kadrlarning o'rni ham alohida e'tiborga molikdir.

Hozirda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan Yangi O'zbekiston g'oyasi zamirida, ulug' ajdodlarimizning milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu - intilishlari va armonlari ham mujassam desak adashmagan bo'lamiz. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotida madaniy taraqqiyot uni yangi bosqichga ko'taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa RENESSANS - uyg'onish, qayta tiklanish yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda va xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda[4.184.].

Albatta davlatimizning Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotganligi hamda dunyo davlatlarining Yangi O'zbekistonimizni o'rganishga yanada qiziqishi ortayotganligida



yosh rahbar kadrlarning o'zni beqiyosdir. Shuning uchun ham yurtimizda bugungi kunda davom etayotgan jadal islohatlar davrida, progressev fikrlaydigan va salohiyatli yosh kadrlarga katta e'tibor qaratilib, siyosiy jabhalarga vastrategik muhim sohalarga jalb qilinmoqda.

Asosiy qisim.

Yangi O'zbekistonda fuqarolar jamiyatining siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqdisodiy qiyofasi jadal o'zgarib hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyatlar va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko'proq biz yoshlar his qilmoqdamiz. Jumladan, "iqdisodiy faoliyat erkinligi", "so'z erkinligi", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va oshkoralik", "jamoatchilik nazorati", "gender tenglik" singari demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi kunda real voqelikka aylanibborayotganligi e'tiborni tortadi.

Yangilanayotgan jamiyat talablari bo'lakcha. U fuqarolarni yurt, millat ravnaqi uchun qayg'urishga undaydi, hayotga teran va sergak qarashga da'vat qiladi[2.50].

Biz o'z oldimizga jamiyatning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik. So'nggi besh yildamamlakatimizning har bir fuqarosi o'z kundalik hayotida teran his etayotgan beqiyos o'zgarish, yangilanish va tub islohatlarga ega bo'lgan davlatni ko'rib bormoqda. Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqdisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada tasirchan va samarali mexanizmlar yaratish, demokratik tamoyil va me'yorlarni hayotga tadbqiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik[3.44].

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borayotgan siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun biz kabi yoshlar belni mahkam bog'lab, qo'limizni shimarib oldinga qadam tashlashimiz lozim bo'ladi.

Bugungi O'zbekiston - bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan, Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham



oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz kerak[4.84].

Shu bois ham istiqbolli yosh kadrlarning intelluktual salohiyatini yuksaltirish davr talabi bo'libkelmoqda. Nafaqat yosh rahbar kadrlarni, balki barcha yoshlarni har tomonlamaqo'llab-quvvatlash va tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh kadrlarning iste'dodini, rahbarlik salohiyatini ochib berish Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlardan biriga aylangan.

Yangi O'zbekistonning yanada taraqqiy etishida IT texnologiyalari ham katta rol o'ynamoqda. Yurtimizda qolaversa xorij davlatlarida shu soha bo'yicha ta'lim olgan yosh rahbar kadrlar sohani to'laqonli o'rganib yoshlar orasida yanada kengroq targ'ibetmoqda. Bugungi hamma yosh zamonaviy rahbarlar ilg'or texnologiya tarafdori va shunga moyil hamdir deb aytish to'g'ri bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, yosh rahbarning zamonaviy va ilg'or ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi. Demak zamonaviy rahbar yoshidan qati'y nazar ilg'or texnologiyalar tarafdori, zamonaviy qarorlar qabul qiladigan qobiliyatli shaxs bo'lmog'i lozim.

Adabiyotlar tahlili.

Yangi O'zbekistonning yoshlari yangicha fikrlaydigan, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga qodir yoshlar bo'lib shakllanmog'i kerak.

Sinovdan o'tgan shaxslarni rahbar qilib saylash zarur. Nega deganda, bu dunyoda katta aql-zakovat bilan birga, ko'pni ko'rgan, uzoqni ko'zlaydigan irodasi mustahkam, kerak bo'lsa turli-turli murakkab sinovlardan o'tgan odamlarni biz o'zimizga rahbar qilib tanlashimiz kerak. Uzoqni ko'ra olmaydigan odamning rahbar bo'lishga mutlaqo haqqi yo'q[1.304].

Shuning uchun biz kabi yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at, sport sohasidagi iste'dod va salohiyatimizni yuzaga chiqarish, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda deb o'ylayman.



Biz uzluksiz milliy ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg'un va mutanosib rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqdamiz. 2021-yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etildi. Ushbu universitetda mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlari uchunna'muna bo'ladi. Eng bilimli va iste'dodli yoshlarimiz shu yerda o'qiydi[4.85].

Mana shunday o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda biz yoshlar aqlimizni, intellektual salohiyatimizni, bilim doiramizni oshirishimiz va yurtimizdagi o'zgarishlarga befarq bo'lmasligimiz lozim.

Yuqorida aytganimizdek, bugungi kunda davlat sektorida inson resurslarini boshqarish tobora strategik vazifaga aylanmoqda. Chunki mamlakatlar eng muhim resurs va eng katta boylik sifatida inson va uning intellektual salohiyati ekanligini e'tirof etmoqda. Shu boisdan ham rivojlangan davlatlarda kadrlar seleksiyasiga hamda yuqori salohiyatga ega rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga birlamchi vazifa sifatida qaraladi.

Aslida ilmiy izlanishlar ham shuni tasdiqlaydi: davlat fuqarolik xizmatiga eng iqtidorli kadrlarni jalb qilinishi innovatsiya va yangilik, iqtisodiy o'sish va rivojlanish, shuningdek, raqobatbardoshlikni ta'minlashga kuchli turtki beradigan omildir.

Mazkur qarorga muvofiq universitetni tamomlagan yoshlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan Milliy kadrlar zaxirasiga olinadi hamda 5 yillik ish tajribasidan so'ng rahbarlik lavozimiga tayinlanadigan istiqbolli nomzodlar ro'yxatiga kiritiladi. Shu o'rinda "Milliy kadrlar zaxirasi" deganda davlat fuqarolik xizmatida rahbarlik lavozimlarini eng munosib kadrlar bilan to'ldirish uchun shakllantiriladigan malakali mutaxassislariga oid ma'lumotlar bazasini tushunish lozim.

Yuqori salohiyat, bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni yuzaga chiqarish, ularni tenglik, raqobatlilik, ixtiyoriylik, shaffoflik, xolislik va ochiqlik tamoyillari asosida Milliy kadrlar zaxirasiga kiritish masalasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalaridan biridir.

Ayni damda davlat organlari va tashkilotlarida kadrlar ishini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, Milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat xizmatchilarining faoliyati



samaradorligini baholash, davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi yo'nalishlarda dastlabki qadamlar qo'yildi.

O'ylaymizki, yuqorida qayd etilgan choralar davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini tom ma'noda o'z kasbining haqiqiy iqtidorlari bilan boyitishga xizmat qiladi va yaqin kelajakda o'zining samarasini bera boshlaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessansni amalga oshirishda yanada jadal qadam qo'yish, biz kabi yoshlarning zamonaviy texnologiyalarni, tezkor va samarali qaror qabul qilishni bilishimiz hamda liderlik qobiliyatini o'stirish uchun jamoa a'zolari bilan ko'proq muloqotga kirishishimiz lozimdir. Biz kabi yoshlar ota-onamizning, Vatanimizning, Prezidentimizning qolaversa butun xalqimizning ishonchini to'laqonli oqlaymiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. –T.: “O'zbekiston” 2015-yil. –B.304.
2. Omon B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. –T.: “O'zbekiston” 2000-yil. –B.50.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: “O'zbekiston” 2021-yil. –B. 44.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. –T.: “O'qituvchi” –B.84.
5. Kholikulov, M. (2023). Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(2), 213-216.
6. Qaxor ogli, X. M. (2022). IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 389-393.
7. Sadriyevna, A. L., & Qaxor o'g'li, X. M. (2023). KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI. *BARCHA SOHALAR BO'YICHA*, 32.